



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No6(1)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 284 sahifa,
1-iyun, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woogyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Milliy xarakter tushunchasining pedagogik va aksiologik talqini.....	10
<i>Usmonova Muattar Bahadirjonovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning o'zini o'zi anglashida muloqotning o'rni	14
<i>Yaxshiboyeva Zuhra, Pardayeva Munisa</i>	
Maktabgacha ta'lim tizimida sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini shakllantirishning zamonaviy usullari	17
<i>Dilsora Shodmonova</i>	
Педагогические предпосылки развития билингвизма у детей в дошкольных образовательных учреждениях	24
<i>Истамова Нигора Азимжановна</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida neyrogimnastika texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik asoslari.....	29
<i>Saidova Nigora Olimovna, G'ulomova Shaxnoza Abdusalom qizi</i>	
Jismoniy tarbiya va sport: iqtidorli yoshlarni tanlash, saralash va ularni maqsadli tayyorlashning zamonaviy yo'llari.....	32
<i>Muxamedjanov Shovkat Muxrumovich</i>	
Yoshlar ma'naviy-axloqiy tarbiyasida tarixiy xotira, milliy meros va qadriyatlardan foydalanishning pedagogik asoslari.....	36
<i>Nomozov Muhammadyusuf Meyliqul o'g'li</i>	
Sport tashkilotlarida rahbarlik qilish va boshqarish.....	40
<i>Artikov Xayrulla Baxtiyarovich</i>	
Formation and Development Stages of Terminology as a Scientific Discipline	44
<i>Lola Mannobova</i>	
Lexicographic Features of Onomastic Units in English and Uzbek Dictionaries	48
<i>Berdiyeva Mashhura Tulqin qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining qobiliyat, qiziqish va o'rganish usullarini hisobga olgan pedagogik metodlar va dars rejaları	51
<i>Abdullaeva Gulmira, Egamberganova Yorqinoy Ollobergan qizi</i>	
Disputning ingliz romanlaridagi pragmatik va lingvokulturologik ko'rinishlari	55
<i>Abdumalikova Diyoraxon Rafiqjon qizi</i>	
O'yin texnologiyalarining aqliy rivojlanishida muammolari bo'lgan bolalar ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishdagi o'rni	59
<i>Abdunazarov Abdumutal Olimovich</i>	
Auditoriyada va auditoriyadan tashqari jarayonda talabalar ijtimoiylashuvini rivojlantirish mexanizmlari	64
<i>Alimova Gulrux Farhod qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativ fikrlashni rivojlantirishda interaktiv o'yin texnologiyalarining pedagogik imkoniyatlari	70
<i>Axtamova Mohinur O'tkir qizi</i>	
Oilaviy zo'ravonlikka uchragan ayollarni qo'llab-quvvatlashda mahalla va ijtimoiy xizmatlarning o'rni	74
<i>Dumarova Gulfira Kozimbekovna, To'liqinova Muxlisaxon Jamshid qizi</i>	
O'zbek milliy romanchiligida tarixiy haqiqat va badiiy talqin (Xayriddin Sultonning "Yaldo kechasi" romani misolida)	78
<i>G'aybulloyeva Parvina Samandar qizi</i>	
Aqli zaif bolalarda kommunikativ faoliyatning ontogeneza shakllanishi	82
<i>Hamraqulova Durdona Dilshod qizi</i>	
Neuroeducation va Phygital Learning asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining kognitiv faolligini rivojlantirish metodikasi	87
<i>Hikmatova Yulduz Nuritdinovna</i>	



Autizm spektri buzilgan bolalarning ijtimoiy-pedagogik moslashuvining nazariy asoslari	91
<i>Shodmanxojiyeva Iroda Ne'matulla qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq rivojlanishini qo'llab-quvvatlashda o'yin texnikalarining roli	95
<i>Jamolova Farida Fatillo qizi</i>	
Ta'lim qardosh tillarga yo'naltirilgan mtt direktorining boshqaruv kompetentligini rivojlantirish mexanizmlari (Qoraqalpog'iston Respublikasi misolida)	98
<i>Jumagulova Gulziya Madiyarovna</i>	
Oliy ta'limda talabalarning raqamli taqdimot va ommaviy nutq ko'nikmalarini axborot texnologiyalari vositasida takomillashtirish	103
<i>Junaydullayev Oxunjon Kaxorjon o'g'li</i>	
Boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'yin texnologiyalari orqali nutq malakalarini rivojlantirish	107
<i>Maqsuda Maxsudovna Murodova</i>	
O'zbek tilida "nur" so'zining ko'chma ma'nolari	113
<i>Maxbuba Axatova</i>	
Bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilarini kasbiy tayyorlashda raqamli texnologiyalar va interfaol metodlardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari	116
<i>Misirova Nodira Tovbayevna, Nosirova Dilfuza Sa'dullayevna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ingliz tilida og'zaki nutqini shakllantirishdagi qiyinchiliklar	120
<i>Nabiyeva Xilola Abdulmuratovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning ma'naviy-ma'rifiy qiyofasini shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari... ..	123
<i>Niyozova Maftuna Normaxmat qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida "Tarbiya" fanini tabiiy fanlar bilan integratsiyalash asosida ekologik tafakkurni shakllantirish.....	126
<i>Norbo'tayeva Iroda Yunusovna</i>	
Suzish vositalari yordamida talabalarning qo'l va oyoq mushaklarini rivojlantirish metodikasi	130
<i>Nosirov Sardor To'lqinjon o'g'li</i>	
Bo'lajak pedagoglarning metakognitiv kompetensiyasini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari	134
<i>Nosirova Ra'no Xamidovna</i>	
Dual ta'limda oliy ta'lim va maktabgacha ta'lim tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlikning mazmuni.....	137
<i>Qoraboyeva Zohidaxon To'lanboyevna, Tursunbayeva Sevara Abdullo qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar nutqida noverbal vositalarning roli	142
<i>Qurbanova Surayyo Tuynazar qizi, Maqsudboyeva Dilbar Olimjon qizi</i>	
Texnologiya fanini o'qitishda integrativ yondashuvning pedagogik zarurati va nazariy asoslari	146
<i>Qurbonmurotov Eldor Abdusaidovich</i>	
O'zbekistonning zamonaviy ta'lim muhitida o'zbek-rus bilingvizmi sharoitida o'quvchilar nutqining psixolingvistik xususiyatlari.....	149
<i>Qurdasheva Bonu Bexzod qizi</i>	
Xorij olimlari tadqiqotlarida prosotsial xulq-atvor namoyon bo'lishining o'rganilishi	153
<i>Rahimova Sarvinoz Odilboy qizi</i>	
Musiqqa fanlarini o'qitishda inquire-based learning texnologiyasidan foydalanish metodlari.....	157
<i>Raximova Dilbar Rizakulovna</i>	
Maktab rahbarining qaror qabul qilish uslubi pedagogik jamoa ijtimoiy faolligini rivojlantirish omili sifatida..	161
<i>Raximova Maryam O'tkir qizi</i>	
Yosh sportchilarda yurak-qon tomir tizimining morfofunksional adaptatsiyasi va sportchi yuragi fenomeni..	173
<i>Alimova Nasiba Adxamovna</i>	
Mintaqaviy iqtisodiyotda turizm klasterlarini rivojlantirishning zamonaviy yo'nalishlari.....	179
<i>Kurbonova Kamola Ilxomovna</i>	
Nutq madaniyati va notiqlik san'ati	183
<i>Mamadaliyeva Lola Shailyasovna</i>	
Molekulyar fizikada klasster yondashuvi asosida masalalar yechish samaradorligini oshirish	188
<i>Mirzamuratov Baxodir Fayzullayevich</i>	
Oliy o'quv yurtlari, sport tashkilotlari va sport marketingi tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlikning zarurati.....	192
<i>Samatov Javlonbek Abdukayumovich</i>	



Bo'lajak biologiya o'qituvchilarida tolerantlik madaniyatini rivojlantirishning pedagogik asoslari	276
Xidirov Faxriddin Fozilovich	
Транслингвальные практики русскоязычных мигрантов в условиях многоязычной среды	280
Рахмонова Нилуфар Уткир кизи	



O'ZBEK TILIDA "NUR" SO'ZINING KO'CHMA MA'NOLARI

Maxbuba Axatova

Filologiya fanlari doktori, DSc
Shahrisabz davlat pedagogika instituti dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek tilidagi "nur" so'zining ko'chma ma'nolari, ularning shakllanishi hamda semantik xususiyatlari tahlil qilinadi. "Nur" leksemasining bilim, ma'rifat, haqiqat, ezgulik, hidoyat va ruhiy poklik ma'nolarida qo'llanishi ilmiy asosda yoritiladi. Shuningdek, mazkur so'zning tasavvufiy adabiyot, badiiy uslub va frazeologik birliklardagi o'rni ham tadqiq etiladi. Maqolada tilshunoslik, tasavvuf va adabiyotshunoslik manbalariga tayangan holda "nur" so'zining ko'p qatlamli semantik tabiati ochib beriladi.

Kalit so'zlar: nur, semantika, ko'chma ma'no, tasavvuf, ma'rifat, frazeologizm, badiiy uslub.

Abstract: This article analyzes the figurative meanings of the word "nur" ("light") in the Uzbek language and its semantic features. The study examines the use of the lexeme in the meanings of knowledge, enlightenment, truth, goodness, guidance, and spiritual purity. The article also explores the role of the word in Sufi literature, artistic style, and phraseological expressions. Based on linguistic, literary, and Sufi sources, the multilayered semantic nature of the word "nur" is revealed.

Key words: light, semantics, figurative meaning, Sufism, enlightenment, phraseology, artistic style.

Аннотация: В данной статье анализируются переносные значения слова "нур" в узбекском языке и их семантические особенности. Исследуется употребление данной лексики в значениях знания, просвещения, истины, добра, духовного очищения и наставления. Также рассматривается роль слова в суфийской литературе, художественном стиле и фразеологических единицах. На основе лингвистических, литературоведческих и суфийских источников раскрывается многослойная семантическая природа слова "нур".

Ключевые слова: нур, семантика, переносное значение, суфизм, просвещение, фразеология, художественный стиль.

KIRISH

O'zbek tili o'zining boy leksik tarkibi, ko'p qatlamli semantik imkoniyatlari hamda obrazli ifoda vositalari bilan ajralib turadi. Tilimizdagi ko'plab so'zlar o'zining bosh ma'nosidan tashqari turli ko'chma ma'nolarda ham qo'llanadi. Ana shunday serma'no leksemalardan biri "nur" so'zidir. Ushbu so'z dastlab fizik yorug'likni anglatganda, vaqt o'tishi bilan ma'naviy, diniy, badiiy va falsafiy ma'nolarni ham ifodalay boshlagan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

"Nur" so'zi arab tilidan o'zlashgan bo'lib, o'zbek tilida qadimdan faol iste'molda qo'llanib keladi. O'zbek tilining izohli lug'atida ushbu leksemaga "yorug'lik manbaidan taralgan ziyo, yog'du" tarzida izoh berilgan. Shu bilan birga, lug'atda uning bir qator ko'chma ma'nolari ham qayd etiladi. Xususan, bilim, ma'rifat, haqiqat, ezgulik va ruhiy poklik bilan bog'liq semantik ma'nolar tilimizda keng qo'llanishi ta'kidlanadi [2, 33].

Ko'chma ma'no til taraqqiyotining muhim semantik hodisalaridan biri hisoblanadi. So'zning bir predmet yoki hodisa nomidan boshqa tushunchaga ko'chishi natijasida yangi ma'no qatamlari yuzaga keladi. "Nur" so'zining ko'chma ma'nolari ham xalq tafakkuri, diniy qarashlar, tasavvufiy ta'limot hamda badiiy adabiyot ta'sirida shakllangan.

"Nur" leksemasining bosh ma'nosi yorug'lik, ziyo va yog'du tushunchalarini anglatadi. U quyosh, oy yoki boshqa yorug'lik manbalaridan taralayotgan yorqinlikni ifodalashda qo'llanadi. Masalan, "quyosh nuri", "oy nuri", "yorug' nur" kabi birikmalarda so'zning denotativ, ya'ni asl ma'nosi namoyon bo'ladi.

Tilshunoslikda ko'plab abstrakt tushunchalarning konkret ma'nolardan rivojlanib chiqqani kuzatiladi. "Nur" so'zi ham dastlab fizik yorug'lik ma'nosida qo'llangan bo'lsa, keyinchalik ma'naviy va ruhiy tushunchalarni

ifodalashga xizmat qila boshlagan ^[3, 56]. Yorug'lik inson tafakkurida ezgulik, poklik va haqiqat bilan bog'langanligi sababli "nur" leksemasi ham turli ko'chma ma'nolarni kasb etgan.

Semantik kengayish jarayonida so'zning ma'no doirasi kengayib, bitta leksema bir necha tushunchalarni ifodalash imkoniyatiga ega bo'ladi. "Nur" so'zi ham hozirgi o'zbek tilida ko'p ma'noli birlik sifatida faol qo'llanmoqda.

O'zbek tilida "nur" so'zining eng keng tarqalgan ko'chma ma'nolaridan biri bilim va ma'rifat tushunchalaridir. "Bilim nuri", "ma'rifat nuri", "ilm nuri" kabi birikmalar bunga misol bo'la oladi. Bu holatda "nur" inson ongini yorituvchi, uni jaholatdan chiqaruvchi ma'naviy kuch sifatida tasvirlanadi ^[6, 118].

Sharq tafakkurida ilm ko'pincha yorug'lik bilan qiyoslangan. Chunki bilim inson qalbini yoritadi va unga to'g'ri yo'l ko'rsatadi. Shu sababli ilm-ma'rifatning "nur" orqali ifodalanishi tabiiy semantik hodisa hisoblanadi. Masalan, "Ilm nuri qalbni yoritadi" jumlasida "nur" so'zi ma'naviy yorug'lik ma'nosida qo'llangan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maktab, kutubxona, ustoz va kitob bilan bog'liq matnlarda ham "nur" so'zi obrazli tarzda qo'llanadi. "Ma'rifat nuri taralgan maskan", "ilm nuri bilan qalblarni yoritmoq" kabi ifodalar buning dalilidir.

"Nur" so'zi ko'pincha haqiqat va to'g'ri yo'l ma'nolarida ham ishlatiladi. Bu ma'no, ayniqsa, tasavvufiy matnlarda yaqqol ko'rinadi. Manbalarda nur hidoyat, imon va ilohiy haqiqat ramzi sifatida talqin qilinadi.

Masalan, "Haqiqiy nur imondadir", "qalbiga nur tushdi" kabi iboralarda "nur" so'zi hidoyat va ruhiy uyg'onish ma'nosini anglatadi. Bu yerda insonning qalban o'zgarishi yorug'lik timsoli orqali ifodalanmoqda.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tasavvuf adabiyotida ham "nur" ilohiy haqiqatning ramzi sifatida keng qo'llangan. Mutasavviflar qalb poklangach, unda ilohiy nur paydo bo'lishini ta'kidlaydilar. Demak, "nur" bu o'rinda moddiy yorug'lik emas, balki ruhiy kamolot timsolidir.

O'zbek tilida "nur" baxt-saodat, ezgulik va yaxshilik ma'nolarida ham ishlatiladi. Masalan, "uyiga nur kirdi", "yuzidan nur yog'iladi" kabi iboralarda so'zning ijobiy ruhiy holat bilan bog'liq ma'nosi yuzaga chiqadi.

Xalqimiz tasavvurida nur poklik va yaxshilik bilan chambarchas bog'langan. Shu sababli mehribon, samimiy yoki ezgu inson haqida "nurli inson", "yuzlari nurli" kabi ta'riflar qo'llanadi. Bunday hollarda nur tashqi yorug'lik emas, balki insonning ichki go'zalligi va ruhiy pokligini ifodalaydi. Ayniqsa, badiiy adabiyotda "nur" so'zi inson ruhiyati va kayfiyatini tasvirlashda muhim poetik vosita sifatida xizmat qiladi [5, 129]. Shoir va yozuvchilar ushbu so'z orqali ezgulik, muhabbat va samimiyatni ifodalashga intiladilar.

Badiiy adabiyotda "nur" so'zi eng faol poetik birliklardan biridir. Shoirilar ushbu leksema orqali tabiat manzaralari, inson qalbi, muhabbat va ilohiy go'zallikni tasvirlaydilar.

Alisher Navoiy she'riyatida nur ilohiy jamol va ruhiy komillik timsoli sifatida qo'llanadi. Oy, quyosh, yuz va ko'z tasvirlarida ham nur obrazidan keng foydalaniladi. "Jamoling nuri", "ko'ngil nuri", "ishq nuri" kabi birikmalar o'zbek mumtoz adabiyotida ko'p uchraydi [4, 163]. Zamonaviy adabiyotda ham "nur" so'zi obrazlilikni kuchaytiruvchi vosita sifatida faol ishlatiladi. Yozuvchilar inson qalbidagi umidni, ezgulikni yoki baxtni "nur" orqali ifodalashadi.

O'zbek tilida "nur" ishtirokidagi ko'plab turg'un birikmalar mavjud. Masalan: ko'z nuri, qalb nuri, ilm nuri, yuzidan nur yog'ilmoq, nurga to'lmoq, nur taratmoq va boshqalar.

Bu birikmalarning aksariyatida "nur" so'zi ko'chma ma'noda qo'llangan. "Ko'z nuri" iborasi farzand ma'nosida ishlatilsa, "qalb nuri" ichki poklik va ezgulikni anglatadi. "Yuzidan nur yog'ilmoq" iborasi esa insonning samimiyliigi va ma'naviy go'zalligini ifodalash uchun qo'llanadi.

Frazeologik birliklarda so'zning obrazli ma'nosi yanada kuchayadi. Shu bois "nur" leksemasi o'zbek tilining badiiy-estetik imkoniyatlarini boyituvchi vositalardan biri hisoblanadi. Demak, "nur" so'zi o'zbek tilida keng semantik imkoniyatlarga ega bo'lgan serma'no leksemdir ^[1, 420]. U dastlab yorug'lik ma'nosini ifodalagan bo'lsa-da, vaqt o'tishi bilan bilim, ma'rifat, haqiqat, ezgulik, ruhiy poklik va baxt-saodat kabi ko'plab ko'chma ma'nolarni ham anglatga boshlagan.

XULOSA

"Nur" so'zining ko'chma ma'nolari xalqning ma'naviy tafakkuri, diniy qarashlari va badiiy dunyoqarashi bilan chambarchas bog'liqdir. Ayniqsa, tasavvuf adabiyoti hamda mumtoz she'riyat ushbu leksemaning semantik jihatdan boyishi va ma'no qamrovining kengayishida muhim o'rin tutgan. "Nur" obrazi Sharq tafakkurida ezgulik, haqiqat, ilm-ma'rifat va ruhiy poklanish timsoli sifatida shakllanganligi sababli u tilimizda nafaqat lug'aviy, balki chuqur ma'naviy-estetik mazmun kasb etgan.



Tahlillar shuni ko'rsatadiki, "nur" leksemasining ko'chma ma'nolari semantik taraqqiyot jarayonida metaforik va ramziy ma'no asosida rivojlangan. Natijada ushbu so'z o'zbek tilida ko'p ma'noli birlik sifatida faol qo'llanib, turli uslubiy qatlamlarda keng semantik imkoniyatlarga ega bo'lib bormoqda. Xususan, ilm, ma'rifat, qalb pokligi, hidoyat va ilohiy haqiqat bilan bog'liq ma'nolar uning eng barqaror ko'chma ma'nolari sifatida namoyon bo'ladi.

Bugungi kunda ham "nur" so'zi o'zbek tilida faol iste'molda bo'lgan, yuksak badiiy-estetik va ma'naviy qiymatga ega leksemalardan biri sifatida o'z ahamiyatini saqlab qolmoqda. Mazkur leksemaning semantik xususiyatlarini o'rganish o'zbek tilshunosligida ko'chma ma'no, semantik kengayish va obrazlilik masalalarini tadqiq etishda muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildlik. II jild. – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – 672 b.
2. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2002. – 168 b.
3. Komilov N. Tasavvuf. – Toshkent: Yozuvchi, 1996. – 288 b.
4. Alisher Navoiy. Lison ut-tayr. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2011. – 432 b.
5. Ahmad Yassaviy. Devoni hikmat. – Toshkent: Sharq, 2004. – 256 b.
6. Imom G'azzoliy. Ihyo ulum ad-din. – Toshkent: Movarounnahr, 2019. – 3-jild. – 512 b.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №6(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.